

SUYISH MA'NO MAYDONI ICHKI GURUHLARI

Mirzazoda Durdonaxon Muxsin qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola suyish ma'no maydoni ichki guruhlarga bo'linishiga bag'ishlangan. Suyish ma'no maydoniga kiruvchi lingvistik birkliklarni o'zaro faqli va o'xshashlik belgilariga ko'ra guruhlarga bo'linishi haqida so'z yuritiladi va o'z navbatida misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: semantik maydon, ma'no, suyish, ifoda, tasnif, lingvistik birkliklar, gender.

Аннотация. Это статья посвящена изучению семантического поля любви. Рассматривается вопрос разделения поля любви на внутренние подгруппы А также говорится о группировке языковых единиц, относящихся к сфере любви, в группы по их сходству и различию, и приводятся примеры.

Ключевые слова: семантическое поле, значение, любовь, выражение, классификация, языковые единицы, род,

Har qanday ma'no maydoni ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Ma'no maydoni o'z ichida ma'noviy guruhlarga bo'linadi. Bunda integral va differensial semalar asosiy vazifani bajaradi. Chunki tasnif o'xshashlik va farqlilik belgilariga tayangan holda amalga oshiriladi. Integral sema ma'no maydoniga kiruvchi birliliklarni birlashtiradi, differensial sema esa mazkur birliliklarni bir –biridan farqlaydi.

Suyish ma'no maydoniga kiruvchi lingvistik birliklar o'zaro faqli va o'xshashlik belgilariga ko'ra dastlab ikkiga bo'linadi. Bular quyidagilar:

- 1) insonning insonga nisbatan suyishini ifodalovchi ma'no maydoni;
- 2) insonning insondan tashqari, yani borliqda mavjud bo'lgan predmet, makon va voqeа - hodisalarga nisbatan suyishini ifodalovchi ma'no maydoni.

Insonning insonga nisbatan suyishini ifodalovchi ma'no maydoni ham o'z ichida ikkiga bo'linadi:

- 1) gender nuqtayi nazardan suyish ma'no maydoni;
- 2) ma'naviy – estetik, ya'ni nogender nuqtayi nazardan suyish ma'no maydoni.

Nogender nuqtayi nazardan suyish ma'no maydoni semantik qamrovi jihatidan gender nuqtayi nazardan suyish ma'no maydonidan keng.

Gender nuqtayi nazardan suyish ma'no maydoni semantik jihatdan asosan ikkiga bo'linadi va bularga quyidagilar kiradi:

- 1) yigit kishining qiz bolaga muabbatini ifodalovchi suyish ma'no maydoni;
- 2) qiz bolaning yigit kishiga nisbatan muhabbatini ifodalovchi suyish ma'no maydoni.

Masalan, yigit kishining qiz bolaga muhabbatini ifodalovchi suyish ma'no maydoniga hazrat Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning Shiringa bo'lgan muhabbatni va bu muhabbatni ifodalash uchun qo'llanilgan leksik birliklar tizimi misol bo'la oladi . Yoki mashhur yozuvchi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanı qahramoni Otabekning Kumushga nisbatan muhabbatni va bu muhabbatni ifodalash uchun qo'llanilgan til birliklari yigit kishining qiz bolaga bo'lgan muhabbatini ifodalovchi suyish ma'no maydoniga misol bo'la oladi.

Qiz bolaning yigit kishiga nisbatan muhabbatini ifodalovchi suyish ma'no maydoniga esa yuqoridagi asarlardagi Shirinning Farhodga va Kumushbibining Otabekka bo'lgan muhabbatlati va shu muhabbatini ifodalash uchun qo'llanilgan til birliklari kiradi.

Biz nima uchun gender nuqtai nazardan suyish ma'no maydonini ikkiga ajratdik, chunki yigit kishi va qiz bolaning suyishni ifodalashda ishlatalidigan muayyan ifodaviy birliklari bir – biridan farq qiladi .Jumladan, yigit kishi hech qachon o'z sevgilisiga [arslonim], [burgutim], [lochinim], [yengilmasim], [alpim], [alpqomatim], [alpkelbatim], [alpomishim], [begim], [devkelbatim], [devqomatim], [farhodim],

[farhodkelbatim], [farhodqomatim], [majnumim], [majnuninam], [otabegim], [shunqorim] degan leksik birliklarni ishlatmaydi. Yoki qiz bola o‘z sevgilisiga nisbatan [parizodim], [parizodginam], [malagim], [malakruxsorim], [malakyuzlim], [farishtam], [farishtaganam], [farihshtaro‘yim], [oymomam], [oychehram], [mohichehram], [mohitobim], [mohitobonim], [hilolam], [sarvinozim], [dilbarim], [dilnavozim], [pariruxsorim], [parichehram], [pariro‘yim], [parivashim], [sumbulsochim], [sumbulsochligim], [mohim], [mohvashim], [mohiro‘yim], [mohlaroyim], [sanobarim], [sumanbarim], [oyjamolim], [azizam], [gulim], [gulruxsorim], [gulchehram], [guljamolim], [begoyim], [shirinim], [shirinvashim], [laylim], [layliginam], [laylivashim], [kumushim], [kumishginam], [kumushbibim], [kumushoyim], [kumushvashim], [barchinim], [barchinoyim], [oybarchinim], [oybarchinginam], [barchinvashim], [zeboginam], [rayhonam], [majnunam], [bahoroyim], [gulbahorim], [gulchiroyim], [asalxonim], [ko‘klamoyim], [xonimginam], [dilbarim], [dilbarginam], [mahbubam] kabi leksik birikmalarini ishlatmaydi. Cnunki o‘zbek ongi va mentalitetida suyishni ifodalash uchun o‘gil bolalar ishlatadigan alohida so‘zlar guruhi bor va o‘z navbatida, qizlar tomonidan ishlatiladigan suyish ma’nosini ifodalashga xoslangan maxsus so‘zlar guruhi bor. Shuningdek, o‘zbek tili suyish ma’no maydonida shunday so‘zlar guruhi mavjudki, ular ham o‘g‘il bolalar, ham qiz bolalar tomonida biday ishlatilaveradi. Bunday so‘zlar guruhiga quyidagilar kiradi: sevgilim, azizim, suyuklim, yolg‘izim, yagonam, mehribonim, tengsizim, quyoshim, oftobim, bahorim, asalim, shakarim, sevinchim, quvonchim, muhabbatim, ardog‘lim, baxtginam, hayotim va boshqalar.

Ko‘rinadiki, gender nuqtai nazardan suyish ma’no maydoni tarkibiga kiruvchi lug‘aviy birliklar ikkiga bo‘linadi:

1) sof gender ma’noni ifodalovchi lug‘aviy birliklar;

2) ham o‘gil bolalar, ham qiz bolalar ishlatishi mumkin bo‘lgan suyish ma’nosini ifodalovchi lug‘aviy birliklar.

Suyish ma’no maydoni tarkibidagi sof gender ma’noni ifodalovchi lug‘aviy birliklar o‘z ichida ikkiga bo‘lainadi:

1) faqat yigitlar tomonidan ishlatilishi mumkuin bo‘lgan lug‘aviy birliklar;

2) faqat qizlar tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan lug‘aviy birliklar.

Biz ushbu guruhlarning barchasiga yuqorida tegishlicha misollar keltirdik .

Suyish ma’no maydoniga kiruvchi lingvistik birliklarning bunday guruhlarga ajratilishi sistem tilshunoslikning antroposentrik yo‘nalishi tamoyillari asosidagi tasnify bo‘linishdir. Chunki antroposentrik yo‘nalish markazida real inson shaxsi turadi va bu yo‘nalish til va nutqni o‘z egasidan ajratmagan holda tahlil etadi [1:3]. Bunda til egalarining milliy ruhiyati, milliy dunyoqarashi, milliy o‘ziga xos ongi inobatga olinadi. Darhaqiqat, antroposentrik yo‘nalishning asoschilaridan biri “Vilgelm Gumboldt (1767-1835) ta’kidlaganidek, nafaqat til yaxlitlikda (ya’ni, sistem butunlikda, sistema shaklida, sistema holatida – M.D.), balki uning grammatikasi ham milliy-ruhiy mohiyatga ega” [2:24]. Demak, tilda milliy o‘zlik, milliy o‘ziga xoslik yaqqol aks etib turadi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy (1878-1934) milliy tilni yo‘qotish millatning ruhini yo‘qotish ekanligini alohida ta’kidlagan edi [3:78].

Til — o‘ta murakkab butunlik, o‘ta murakkab sistema. U beqiyos ijtimoiy funksiyani bajaradi. “Til dunyonи o‘ziga xos tarzda ko‘rish, bilish, idrok etish va anglash, ayni paytda boshqalarga ta’sir etishning qudratli qurolidir”[4:5]. Shunday ekan, til tizimida mavjud bo‘lgan ma’no maydonlarini, xususan, suyish ma’no maydonini antroposentrik yo‘nalish tamoyillari asosida tahlil va tasnif eytish bugungi kunda eng to‘g‘ri yo‘ldir. Shuning uchun ham bu yo‘nalish tilshunoslar tomonidan eng istiqbolli yo‘nalishlarda biri sifatida e’tirof etilmoqda [1:3].

Suyish ma’no maydonini ifodalashda o‘zbek tili sohibi hamisha ko‘plab vositalara ega. Bu vositalarning asosini lug‘aviy birliklar tashkil etadi. Shuningdek, suyish ma’nosini ifodalovchi maxsus qo‘shimchalar hamda urg‘u ushbu funksiyani bajaruvchilar sanaladi.

Demak, o‘zbek tilida suyish ma’no maydonining ifodalanishida ishtirok etuvchi vositalar quyidagilar:

1.Morfologik vositalar (qo‘shimchalar).

2. Leksik vositalar (so‘zlar).

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, suyish ma’nono maydoni o‘zbek tilshunosligida alohida tadqiq etilmagan va shu bois suyish ma’nosini ifodalovchi qo‘shimchalar guruhi ham ajratilmagan. Shunigdek, suyish ma’no

maydoniga kiruvchi va uning mavjudligini ko'rsatib turuvchi leksik guruh a'zolari ham so'z turkumlari nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mahmudov N, Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati .T.: Ma'naviyat, 2013.— 320-b.
2. He'matov H., Qurbanova M., Mengliyev B. Milliy istiqlol va milliy gramatika. // Istiqlol va til. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.:—2005.
3. Odob-axloq kitobi /Jadid adabiyoti namoyandalari: M.Behbudiy va boshq. T.: Yangi asr avlod , 2019 .— 192b.
4. Mahmudov N. Til— bemisl va muhtasham sinoat .// Til va adabiyot ta'limi. 2014 , 10-son .